XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-62-129-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2024 yilda bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-, 437-moddalari va O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning egaligida bo‘lgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 2024 yilda bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida kiritilgan takliflari ma’qullansin.

2. Tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi yuqorida 1 va 2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Adilov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Islomov)larga 2024 yildagi budjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Zafar yo‘lidan” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining zafarobod.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy buyudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O'.Raxmanov**

Xalq deputatlari Zafarobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-129-3-50-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Hududlar	Koefitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘ining stavkasi 2024 yil uchun (mln.so‘mda)
1	Birlik QFY	0,80	28,80
2	Bo‘ston MFY	0,85	30,60
3	Yorkin ShFY	0,80	28,80
4	Lolazor QFY	0,70	25,20
5	Nurafshon ShFY	0,75	27,00
6	Pistalikent ShFY	0,75	27,00
7	Samarqand MFY	0,85	30,60
8	Uzun QFY	0,80	28,80
9	Chimqo‘rg‘on QFY	0,70	25,20
10	Cho‘liguliston QFY	0,70	25,20

Xalq deputatlari Zafarobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-129-3-50-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Hududlar	Koefitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘ining stavkasi 2024 yil uchun (so‘mda)
1	Birlik KFY	0,79	290,72
2	Bo‘ston MFY	0,84	309,12
3	Yorkin MFY	0,79	290,72
4	Lolazor MFY	0,70	257,60
5	Nurafshon ShFY	0,74	272,32
6	Pistalikent ShFY	0,74	272,32
7	Samarqand MFY	0,84	309,12
8	Uzun MFY	0,77	283,36
9	Chimqo‘rg‘on MFY	0,70	257,60
10	Cho‘liguliston MFY	0,70	257,60